

**AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING TA'LIM  
SIFATIDAGI TASIRI**

**Berdiyorova Mahfuza Baxtiyor qizi**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'limg yo'nalishi talabasi*

*E-mail: [mahfuzaberdiyorova27@gmail.com](mailto:mahfuzaberdiyorova27@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola axborot texnologiyalarining ta'limg sifatiga ta'sirini o'rGANADI. Maqolada axborot texnologiyalarining ta'limg tizimida qanday qo'llanilishi, uning ta'limg jarayoniga ijobiy va salbiy ta'sirlari, shuningdek, o'qituvchilar va o'quvchilarning roli tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalarining ta'limg samarali qo'llanilishi o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish, shaxsiylashtirilgan o'qish imkoniyatlarini yaratish va yangi metodikalarni joriy etish orqali ta'limg sifatini yaxshilashga yordam beradi.

**Abstract.** This article examines the impact of information technology on the quality of education. The article analyzes how information technology is used in the education system, its positive and negative effects on the educational process, as well as the role of teachers and students. The effective use of information technology in education helps to improve the quality of education by increasing the efficiency of student learning, creating personalized learning opportunities, and introducing new methodologies.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается влияние информационных технологий на качество образования. В статье анализируется использование информационных технологий в системе образования, их положительное и отрицательное влияние на учебный процесс, а также роль преподавателей и учащихся. Эффективное использование информационных технологий в образовании помогает улучшить качество образования за счет повышения эффективности обучения студентов, создания возможностей персонализированного обучения и внедрения новых методов.

**Kalit so'zlar:** axborot, axborot texnologiyalar, onlayn ta'limg, ma'sofaviy ta'limg, ta'limg sifati.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining ta'limg sohasidagi ahamiyati juda katta. Yangi texnologiyalar ta'limg tizimining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada o'zgartirish va ta'limg metodlarini yangilashda muhim rol o'yynamoqda. Axborot texnologiyalarining tarqalishi ta'limg global miqyosda tenglashtiradi, o'quvchilarga yangi bilim olishda keng imkoniyatlar yaratadi va o'qituvchilarga innovatsion metodlarni qo'llashga imkon beradi. Ushbu maqolada axborot texnologiyalarining ta'limg sifatiga ta'siri tahlil qilinadi, ularning ta'limg jarayonidagi o'rni, imkoniyatlar va muammolar ko'rib chiqiladi. Informatikaning asosiy tushunchalaridan biri

– bu axborot- kommunikatsiya texnologiyasidir. Eng avvalo o‘z - o‘zidan axborot nima degan savol tug‘iladi.

“Axborot” so‘zi lotincha informatio so‘zidan olingan bo‘lib, tushuntirish, biror narsani bayon qilish yoki biror narsa yoxud hodisa haqidagi ma'lumot ma’nosini anglatadi. Ma'lumotlar aniq vazifalarini hal etishda zarur va foydali deb topilsa, axborotga aylanadi. Masalan, qog‘ozga telefon raqamlarini ma'lum tartibda yozib, birovga ko‘rsatsangiz, u buni biror axborot bermaydigan ma'lumot sifatida qabul qiladi. Biroq har bir telefon raqami qarshisiga muayyan korxona yoki tashkilot nomi, uning faoliyati turi yozib qo‘yilsa, avvalgi ma'lumot axborotga aylanadi.<sup>1</sup> Hozirgi kunda instagramm ,telegram va boshqa tarmoqlarda har xil reklamalarni ko‘rishimiz mumkin. Bu ham biz uchun axborot hisoblanadi.

Texnologiya so‘zi esa grek tilidan (techne) tarjima qilinganda san`at, mahorat, bilish ma`nolarini anglatadi, bular esa o‘znavbatida jarayonlardir.

Axborot texnologiyalari – bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo‘yicha imkoniyatlarini

kengaytiradigan ma'lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash,

uzatish usullari va texnik vositalaridir. Yana shuningdek, axborot texnologiyalari deganda, ma'lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi.<sup>2</sup>Bundan 3 - 4 yil oldin ta'lim sifatida Informatika so‘zi qo‘llanilib kelinmoqda edi. Hozirda esa, bu so‘zning o‘rniga Axborot texnologiyalari qo‘llanilib kelinmoqda. Shu bilan birga axborot texnologiyalari ta'lim tizimida bir nechta shakllarda qo'llaniladi. O‘quvchilar va o‘qituvchilarga zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim olish va berish jarayonini osonlashtirish, sifatini oshirish imkoniyati taqdim etiladi. Talim jarayonida O‘quvchilar kompyuterlar, planshetlar va smartfonlar orqali o‘quv materiallariga kirishlari mumkin. Internetning kengayishi o‘quvchilarga onlayn darslar, video darslar, interaktiv materiallar bilan tanishish imkoniyatini yaratadi. Bu o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam Axborot texnologiyalarning yana bir ustun jihat shundaki, onlayn ta'lim platformalarini ishga tushirishda yuqori natijalarni ko‘rsatadi Google Classroom, Microsoft Teams, Zoom kabi onlayn ta'lim platformalari ta'lim jarayonini masofadan olib borish imkonini beradi. Bunday platformalar orqali o‘qituvchilar darslarni oson tashkil etish, o‘quvchilarga individual yondoshuv ko‘rsatish va o‘quv materiallarini baholashni amalga oshirishadi. Ayniqsa, "Covid-2019" pandemeya davrida onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish yuqori bo‘ldi. O‘quvchilar o‘zlari ustida mustaqil foydalanish uchun turli xil o‘quv dasturlari va mobil ilovalar ta'limda samarali qo'llanilmoqda. Masalan, matematika, til o‘rganish va boshqa sohalarda o‘quvchilarga interaktiv mashqlar va testlar orqali bilimlarini sinab ko‘rish imkoniyatini yaratadi.Misol qiladigan bo‘lsak, ingliz tilini o‘rganish uchun "Ibrat Academy" ilovasi orqali ro‘yxatdan o‘tib, o‘ziga kerakli bo‘lgan tillarni o‘rgansa va natijaga erishsa bo‘ladi.

Axborot texnologiyalarining ta'limdagi ta'sirini ko'rib chiqish, uning sifatga Axborot texnologiyalarining ta'limdagi ta'sirini ko'rib chiqish, uning sifatga ta'sirini bevosita va

bilvosita orqali ko'rishimiz mumkin. Axborot texnologiyalari kundan kunga rivojlanib bormoqda. Ta'lif jarayoniga ham o'zgartirishlar kiritilmoqda. Faqatgina bir fan doirasida chegaralanib qolmasdan turli fanlararo integratsiyasi "STEM" texnologiyalari, metodlar va usullar yordamida o'qitish metodikasi yangilanmoqda. Axborot texnologiyalarining ta'lif jarayoniga integratsiyasi o'qitish metodikasini yangilashga olib keldi. Interaktiv ta'lif vositalari va onlayn platformalar o'qituvchilarga yangi metodlarni qo'llash imkoniyatini yaratadi. O'qituvchilar video darslar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarga amaliy bilimlar berishga yordam beradi. Axborot texnologiyalari yordamida o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos shaxsiylashtirilgan o'quv jarayoni tashkil etiladi. Masalan, onlayn testlar va mashqlar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Bu ta'lif jarayonini osonlashtiradi va o'quvchilarning o'zlashtirish tezligini moslashtiradi va samaradorlikni oshiradi. Axborot texnologiyalari yordamida o'quvchilar ko'proq interaktiv materiallar bilan ishlashadi, bu esa ularning ta'lif olish samaradorligini oshiradi. O'qish jarayonida texnologiyalardan foydalanish, bilimlarni tez va samarali o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, onlayn testlar va dasturlar orqali o'quvchilar o'zlarini baholash va nazorat qilish imkoniga ega bo'ladi.

Axborot Texnologiyalari orqali ta'lif jarayonida "Innovatsiya" larni keltirib chiqaradi. Axborot texnologiyalari ta'limda yangiliklarni yaratishda katta rol o'ynaydi. Quyidagi innovatsion texnologiyalar ta'limda samarali qo'llaniladi. Bulardan, Sun'iy intellekt (SI): Sun'iy intellekt yordamida shaxsiylashtirilgan o'quv materiallari yaratish mumkin. SI yordamida o'quvchilarning yutuqlari tahlil qilinadi va ularga mos o'quv resurslari taqdim etiladi. Yana bir usuli Gamifikatsiya. Ta'limga o'yin elementlarini kiritish orqali o'quvchilarning motivatsiyasi oshadi. Gamifikatsiya metodlari o'quvchilarga o'qish jarayonini qiziqarli va raqobatbardosh tarzda amalga oshirish imkonini beradi. Bu usul ta'lif jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Axborot Texnologiyalarini o'qitishda avvalo o'qituvchilar katta ro'l o'ynaydi. Axborot texnologiyalarining ta'limdagi samaradorligini oshirish uchun o'qituvchilar ham yangi texnologiyalarni o'zlashtirishlari kerak. O'qituvchilarning texnologiyalarini qo'llashdagi bilim va malakasi ta'lif sifatiga bevosita ta'sir qiladi. O'qituvchilar uchun maxsus kurslar, treninglar va seminarlar tashkil etilishi zarur, chunki ularning axborot texnologiyalari bo'yicha bilimlarini yangilab borish ta'lif jarayonining muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlaydi. Tanganing ikki tarafi bo'lganidek, axborot texnologiyalarining ham salbiy ta'sirlari mavjud.

Axborot texnologiyalarining ta'limdagi foydalari bilan birga, ba'zi salbiy tomonlari ham mavjud. Jumladan, Diqqatni jamlashdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. O'quvchilar kompyuterlar va mobil qurilmalarga ko'proq vaqt ajratishlari mumkin, bu esa ularning diqqatini tarqatishi va o'qishga bo'lgan e'tiborini kamaytirishini keltirib chiqaradi. Yuqorida aytilgan onlayn platformalardan foydalanishda o'quvchini dangasalikka olib keladi. O'ziga zarur bo'lgan axborotlarni su'niy intellekt va boshqa tarmoqlardan osongina topib kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini so'ndirishi mumkin. Bundan tashqari onlayn

platformalardan muammolarga duch kelishi ehtimoli ham yo‘q emas. Onlayn ta’lim platformalarida o‘qish jarayonida axborot xavfsizligi va maxfiylik masalalari dolzarbdir. O‘quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarining himoyasi va xavfsizligini ta'minlash kerak. Ba’zi o‘quvchilar faqat internet manbalariga tayanib o‘qishadi, bu esa ularning mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini yo‘qotishi va raqobatbardoshlikni pasaytirishga ham olib keladi.

### **Xulosa**

Axborot texnologiyalari ta’limda samarali qo’llanilsa, ularning ta’lim sifatini oshirishdagi roli beqiyosdir. O‘quvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratish, o‘qituvchilarga innovatsion metodlarni qo’llash, ta’limda individual yondoshuvlarni amalga oshirish va ta’lim jarayonini global miqyosda rivojlantirish uchun axborot texnologiyalari zarur. Biroq, bu texnologiyalarni to’g’ri va ehtiyojkorlik bilan qo’llash, ta’lim jarayonining sifatini ta’minlash uchun muhimdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M.Aripov, B.Begalov, U.Begimqulov, M.Mamarajabov. "Axborot texnologiyalari" o‘quv qo‘llanma Toshkent-{Noshir}-2009, 5- bet
2. S.S.Muxlisov, R.U.Kuchkarbayev, F.X.Xazratov "TALIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" O‘quv qo‘llanma. Buxoro-2021.
3. Ne’matov O., Umirova M. Boshlang’ich ta’lim jarayonini tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati // O’zbekistonda ilmiy-innovatsion tadqiqotlar jurnali. – 2024. – T. 2. – Yo‘q. 4. – 77-81-betlar.
4. M.Kadirov "Axborot texnologiyalari" Toshkent-2018.
5. O.Ne'matov "TA'LIMDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" "Science Shine International scientific journal"-2023.